# NUTQNING AXLOQIY FAZILATLARI

# R E J A:

- 1. Nutqning to'g'riligi.
- 2. Nutqning sofligi.
- 3. Nutqning aniqligi.
- 4. Nutqning mantiiqiyligi.
- 5. Nutqning ifodaviyligi.
- 6. Nutqning boyligi.
- 7. Nutqning o'rinliligi.

- Nutqning to'g'riligi uning dabiy til normalariga mosligidir. Adabiy til normalari ko'p tarmoqli bo'lgan uchun nutqning to'g'riligshi ham bir qancha shartlarni o'zida qamraydi. To'g'r, nutq o'zida adabiy tilning fonetik, talaffuz, lug'ayviy so'z yasalishi, grammatik (morfologik, sintaktik), uslubiy normalarini mujassamlashtirilgan bo'lishi lozim. Bularning birortasidan biroz chetlashgan nutq ham to'g'ri bo'la olmaydi.

- Nutqning to'g'riligi uning eng muhim aloqaviy fazilatlaridir. Nutq to'g'ri bo'lmasa, boshqa kommunikativ fazilatlari ham vayron bo'ladi. Nutqning tuzilishi to'g'ri bo'lmaganda, uning mantiiqiyligi,aniqligi, o'rinliligi haqida gapirib bo'lmaydi.
- To'g'ri utq tuzish uchun so'zlovchi adabiy til normalarini egallab olgan bo'lmoqi lozim. Bu esa juda murakkab, sermashaqqat ishdir.

- Adabiy til uchun begona unsunlari bo'lmagan, ahloq normalari tan olmaydigan so'zlardan holi bo'lgan nutq sof nutq deb yuritiladi.
- Ijtimoiy normalar adabiy tilda axlodan tashqarii til unsunlarini ishlatishga yo'l bermaydi. Ammo hamonki nutq shaxsga xos hodisa ekan, unda ijtimoiy axloq normalirin buzuvchi til birliklari ham ishlatilibyu qolishi ehtimoldan uzoq emas.

- Sanab o'tilgan unsurlardan o'rinsiz foydalanish kundalik nutqni ham, badiiy nutqni ham xiralashtiradi. Har bir so'zlovchi o'z nutqining adabiy normalar darajasida bo'lishi uchun qarakat qilishi lozim. O'z shevasiga xos bo'lgan til vositalarini nutqqa o'rinsiz olib kirish nutqni bo'zadi. Biroq adabiy tilda varinati bo'lmagan, ifodalanayotgan fikrni ravshanlashtirish uchun zarur so'z va grammatik vositalarni, ularga izoh bergan holda nutqqa olib kirish unga sayqal bag'ishlaydi.

- Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma'lum. G'arb mutaffakkurlari ham Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti hisoblaganlar. Aritotel: "Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishilmaydi", -degan bo'lsa, Kaykovus: "Ey farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so'zlaganda ma'noli gapirgil, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang qushga o'xshagaysan" -deydi.

- Nutqning sifati ma'nosida aniqlikning o'zi nimalardan iborat? Aniqligi "nutq-borliq", "nutq-tafakkur" munosabatlari asosida aniqlasa bo'ladi. Nutqning aniqligi so'zning narsa va hodisalarda aks etgan borliq belgilari bilan qat'iy mos kelishidir. Aniqlikni so'zning hammaga tushunarli ma'nosi bilan nutqda anglatgan ma'nosining biri-biriga mos kelishi deb tushunish ham mumkin. Moslik deganda esa nutqdagi so'z-narsa munosabatdoshligi anglashiladi. So'z-narsa munosabatdoshligidan tashqarii moslik bo'lishi mumkin emas. Nutq aniq bo'lishi uchun so'z til sistemasi o'ziga berkitgan ma'noga to'la mos holda qo'llanishi zarur. Demak, aniqlik nutqda so'z qo'llash normalirag amal qilishdan iborat. Bu jihatdan aniqlik to'g'rilikning boshqacha ko'rinishi hisoblanadi. Ba'zan notiq o'zi ishlatadigan so'zning ma'nosini bilishga uncha e'tibor bermaydi. Natijada so'zning sistema bergan ma'nosi nutqda ko'zda tutilgan ma'nosiga mos kelmaydi. Ko'pincha bunga bir-biriga yaqin narsalarni anglatuvchi so'zlar sabab bo'ladi.

- Aniq nutq yaratish so'zlovchidan qo'yidagilarni o'rganish va ularga amal qilishni talab etadi:
- a) tilning sinonimiy imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakli variantni ajratib nutqda qo'llash;
- b) nutqda ishlatiladigan so'zning anglatgan ma'nolarini har tomonlama bilish; nojiddiy, taxminiy qo'llashlardan qochish, chunki betayin so'z qo'llash nutqni beburd qiladi.
- v) so'zning ko'p ma'noligiga e'tibor berish, ko'p ma'nli so'z nutqda qo'llanganda uning qaysi ma'no qirrasi ko'zda tutilayotgannini aniq tasavvur qilish; fikrning yuzasha chiqishida bu so'zning boshqa ma'no qirralari monelik qilish-qilmasligini ko'z oldiga keltirish;
- g) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi;
- d) poronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e'tibor berish;
- e) tor muhitda ishlatiladigan, chetdan kirgan, kasb-hunarga oid arxaik, eskirgan, dialektizm so'zlarning ma'nolarini yaxshi anglagan holda nutqqa kiritish.

- Nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohia fikrlarning o'zaro mutanosibligi mantiqiylik deb yuritiladi.
- Mantiqiy nutqda gaplardagi fikrlar butun nutqdan kelib chiqadigan fikrning qismlari hisoblanadi, ular orasida ziddiyat bo'lmaydi. Mantiqiylik aniqlika suyanadi. Bunda predmet aniqligi ham tushunchaviy aniqlik ham muhimdir. Noaniq nutq mantiqiy bo'la olmaydi. Nutqda mantiqiylikka erishish uchun unda qo'llangan so'zlar bilan ularning predmetlik ma'nolari mos bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda har bir so'z nutqda qo'llananda o'ziga berkitilgan ma'nogina ifodalashi mumkin.

- Biroq so'zlar qit'iy aniqlikda qo'llanganda hm mantiqiylik bo'zilishi mumkin. Chunki aniqlik leksik sath bilan, mantiqiylik sintaktik qurilish bilan bog'langandir. Mantiqiylikni predmet mantiqiyligi va tushuncha mantiiqiyligi deb ikkiga ajratish mumkin. Predmet mantiqiyligi nutqda til birliklarining o'zaro ichki munosabatlarining mosligidan iborat. Tushuncha mantiqiyligi mantiqiy fikr tuzilishi hamda bu tuzilishning nutqdagi til belgilari ma'no aloqalaridan iborat. Mantiqiylikning bu ikki ko'rinishi o'zaro aloqada bo'lib, nutqda birlikda namoyon bo'ladi.

- Gap ichida mantiqiylikning buziluviga qo'yidagilr sabab bo'lishi mumkin:
- 1. Ma'lumki so'zlar o'zaro ma'no doiralariga mos keluvchi sz bilangina birikam oladi. Istalgan so'zni istalgan so'z bilan biriktirish mumkin emas. Bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar gap ichida birikib qolsalar, fikrda mantiqsizlik yuz beradi.
- 2. So'z tartibiga e'tibor bermaslik.
- Gap ichida so'zlarning o'zaro to'g'ri tartibi mantiiqiylikning yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida so'z tartibi gapning sintaktik tuzilishida amal qiladi. Sintaktik tuzilish so'z tartibi, svz birikmalari,ega, kesim va boshqa gap bo'laklarining joylashuvini belgilaydi.
- 3. Bir xil ma'noli ifodalarni nutqqa ortiqcha kiritish mantiiqiylikning buzilishiga sabab bo'ladi. Bir xil ma'noli birdan ortiq ifodalar pleonazm deb yuritiladi: Men, o'zim; shu bugun,bugundan boshlab kabi.

- O'rinlilik nutqning fazilatlari ichida eng muhimlaridan biridir. Chunki nutqning boshqa fazilatlari parcha, uchun nutq so'zlanib turgan sharoit uchun o'rinli bo'lsagina, o'zini ko'rsata oladi. Aks holda to'g'rilik ham, ifodalilik ham anglashilmaydi.
- O'rinlilik nutqning ma'lum bir voqea-hodisaga, aloqaning maqsadi va sharoitiga moslab tuzilishidir. O'rinli nutq berilayotgan ma'lumotga, tinglovchilarning nutq so'zlanayotgan paytdagi ruhiy holatiga mos bo'ladi. Masalan, nikoh to'yi kechasida aytilgan nutq bilan ish yuzasidan o'tkazilgan majlisda so'zlangan nutq o'z so'z tarkibi, qo'rilishi, uslubi, ohangi bilan bir-biridan keskin ajralib turadi.

- O'rinlilikka erishishning asosida tilning so'z boyligini egallash, har bir so'zning ma'no qirralarini chuqur anglash yotadi. So'zlovchi ayrim so'z, so'z birikmalari yoki iboaralarning leksik ma'nolarini yazxshi anglamasdan nutqqa kiritilganda, mazkur til vositalari muallif ko'zlagan ma'noni anglatganligi uchun, maqsad yuzaga chiqmaydi, mantiqsizlik paydo bo'ladi.
- Nutqning o'rinliligi asosida gapni ma'lum maqsadga ko'ra qurish g'oyasi yotadi. O'rinlilik gapda ko'zda tutilgan maqsadning yuzaga chiqishini ta'minlash uchun til vositalarining jonlanishidir. Uni amalga oshirish so'zlovchidan til vositalarini, til kurilishini, til uslublarini bilishni talab etadi. Chunki nutkning o'rinliligi tilning har xil satqlarini qamraydi hamda so'zlar, so'z birikmalari, grammatik kategoriyalar va shakllar, sintaktik qurilmalarning butun bir tizimini qo'llash orqali shakllanadi.

- Ma'lumki, adabiy til so'zlashuv, rasmiy, ilmiy, publitsistik, bidiiy uslublarga egadir. Ularning har birining o'z xususiyatlari bor. Til materiallarini tenglash qonun - qoidalari mavjud. So'z, so'z birikmalari, sintakt'ik qurilma va butun nutq tuzilishi sistemasining o'rinlililgini til uslubi belgilaydi hamda boshqaradi. U yoki bu so'zning, birikmasining, sintaktik qurilmaning lozim yoki lozim emasligini har bir uslubning o'zi hal qiladi.
- Nutqning o'rinliligi ijtimoiy jihatdan juda muhim, chunki u bizning nutqiy hulqimizni boshqaradi.